



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ENERGETIKA BOZORINI RIVOJLANTIRISH
VA TARTIBGA SOLISH AGENTLIGI
BUYRUG‘I**

39 -son
“20” avgust 2024-yil


**O‘zbekiston Respublikasi Energetika bozorini rivojlantirish va tartibga solish
agentligi huzuridagi
Jamoatchilik kengashining nizomini tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat organlari huzuridagi jamoatchilik kengashlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 4-iyuldagi PQ-3837-son qarorining ijrosini bajarish, Agentlik va jamiyat o‘rtasida ta’sirchan hamda samarali muloqotni yo‘lga qo‘yish, Agentlik faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning mustahkam mexanizmlarini rivojlantirish, faoliyatining ochiqligi va shaffofligini, fuqarolik jamiyati institutlari bilan samarali hamkorlikni ta’minlash maqsadida,

BUYURAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Energetika bozorini rivojlantirish va tartibga solish agentligi (keyinchalik - Agentlik) huzuridagi Jamoatchilik kengashining nizomi tasdiqlansin.
2. Agentlik bo‘lim rahbarlari, Jamoatchilik kengashining faoliyatiga har tomonlama ko‘maklashishni ta’minlasinlar.
3. Agentlik Matbuot kotibi Jamoatchilik kengashining ishchi organi hisoblanadi, uning faoliyatini tashkiliy-uslubiy va axborot jihatdan ta’minlaydi.
4. Jamoatchilik kengashining kotibligiga Agentlik Matbuot kotibi B. Abdullayev nomzodi taklif etilsin.
5. Mazkur buyruqni bajarilishini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Direktor

**Sh. Xodjayev**

KELISHUV VARAQASI

Direktor o‘rinbosari


_____ **A. Otaboyev**

“ ” _____ 2024 yil

Matbuot kotibi


_____ **B. Abdullayev**

“ ” _____ 2024 yil

Inson resurslarini rivojlan-
tirish va boshqarish bo‘yicha bosh
mutaxassis


_____ **Sh. Xakimova**

“ ” _____ 2024 yil

Bosh yuriskonsult


_____ **A. Ernazarov**

“ ” _____ 2024 yil